

ZAMONAVIY TA'LIMDA KASBIY KOMPONENTLIK***Maxmudova Muhayyo****Namangan viloyat Uchqo'rg'on tuman
19- maktab boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy komponentlik kasbiy komponentlik faoliyati va uning o`ziga xos tomonlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: zamonavuiy ta'lism, pedagogik faoliyat, layoqat, kasbiy komponentlik, innovatsin yondashuv, yangicha yondashuv, kasbiy tayyorgarlik

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Makhmudova Muxaiye Школа № 19
Учкурганского района Наманганской
области учитель начального образования izb*

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность профессиональной компетентности и ее специфические аспекты в процессе современного образования.

Ключевые слова: современное образование, педагогическая деятельность, способности, профессиональная компетентность, инновационный подход, зарубежный опыт, профессиональная подготовка.

PROFESSIONAL COMPONENT IN MODERN EDUCATION

*Makhmudova Muhaiyo
Namangan regional Uchkurgan
District School No. 19
primary education teacher*

Abstract: In this article, the activity of professional competency and its specific aspects are discussed in the process of modern education.

Key words: modern education, pedagogical activity, ability, professional competence, innovative approach, foreign experience, professional training

Mamlakatimiz ta'lism tizimida katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Ta'lism tizimidagi izchil o'qitish

sifati, mazmun-mohiyati ham tubdan yangilanmoqda. Bu esa o`qituvchining kasbiy mahoratini va kasbiy kompetentligini oshirishga mas'uliyat bilan yondashishni taqoza etadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarni egallashi va ularni amalda qo'llashi hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, maqsadli, mustaqil harakatlarning o'zlashtirilishini ham hisobga olib faoliyat yuritishidir.

O`qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rinn tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Kasbiy mahorat cho'qjisiga chiqish, ularni moslashtirish qobiliyat va iste'dodini O`qituvchi faoliyatida motiv, maqsad, tashabbuskorlik, izlanuvchanlik va yangilikka intilish juda muhimdir.

Kompetentlikning mavjudligi inson mehnatining natijasiga qarab aniqlanadi. Har bir mutaxassisning kompetentlilik darajasi, uning bajargan ishi, shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo'lib, uning o'ziga xos tomonlari, shukli, kompetentli mutaxassisning bilimlari tezkor va harakatchan bo'lib, ular doimo yangilanib turadi.

O`qituvchining kasbiy faoliyat uchun zarur hisoblanadigan kompetensiyalarni muhim jihat va uni bugungi ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga innovatsion yondasha olishidir.

Ta'lim tizimida xaqaro baholash dasturlari va xorij tajribalri asosida o`qitish, o`quvchilarimizning xalqaro tadqiqotlarida ishtirokini ta'minlash va tayyorgarlik ishlari amalga oshirilayotganligi bu sohadagi o'zgarishlar davri desak bo'ladi.

Kasbiy komponentlikka ega bo`lish, o`z imkoniyatlarini aniqlash, mustaqil faoliyat yuritish, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish, xalqaro baholash dasturlarida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish mazmun va mohiyatini bilishni talab etadi.

Kasbiy kompetentlikka ega bo`lishda o`z ustida ishslash, mustaqil izlanish, o`zini-o`zi rivojlantirish boorish muhimdir. Shunday ekan o`qituvchi o`z kasbini sevishi va yangilikka intiluvchan bo`lishi kerak. Xalqaro tajribalarni tadbiq etishda kasbiy kompetentlik jihatlari ham muhim rol o'ynaydi.

Bugungi globallashuv davrida o`qituvchi o`z yurti va dunyoda bo`layotgan voqeal-hodisalardan har kuni xabardor bo`lishi lozim.. O`qituvchisi o`rgatayotgan maqsad zamobnviy innovatsion yondashuv bilan baho berishi va xulosa chiqarishi zarur. Bu esa talim sifatini oshirishga olib kelai.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi esa har doim bir neha fanlar integratsiyasi asosida kasbiy bilimlarini boyitishi kerk.

Kasbiy kompetentlik - kasbiy faoliyatini doimiy rivojlantirib borish, o`zini –o`zi tahlil qilish orqali yanada takomillashtirib borishni talab etadi. O`z ustida ishslash faoliyatida ijodiy yondashish, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlikka erishish va o`z o`rnida salbiy odatlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Xorij tajribalari, xalqaro baholash tadqiqotlari–bularni amalga oshirishdagi asosiy kuch pedagoglar sanaladi. Xalqaro tajribalarni tadbiq etishda kasbiy kompetentlik jihatlari ham muhim ekanini nazarda tutgan holda o‘z bilim salohiyatini ham oshirish boorish talab etiladi.

Zamonaviy ta'lim nafaqat topshiriqlarni mas'uliyat bian bajaradigan, balki, o`z ishiga kreativ yondashadigan izlanuvchan pedagog bo`lishni nzarda tutadi. Shunday ekan, kasbiy komponentlikka ega bo`lishda o‘z ustida ishslash, o’z-o’zini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy komponentlikka ega bo`lgan pedagog o‘z bilimlarini izchillik bilan boyitib boradi. Yangi axborotlarni o‘zlashtirib boradi. Tinimsiz mutaxasssisligi va yangi innovatsiyalar bilan qurollanishga o‘tadi. Har bir pedagog o‘z kasbiy faoliyatini zamonaviy taraqqiyot va usullarga moslashtirib borishi talab etiladi.

Zamonaviy ta'limda bolaga ma'lum bilimlarni berishgina emas, balki aqliy faoliyatlarini rivojlantirish, bilimlarini o‘z kundalik hayotida qo`lash ko`nikmasini shakllantirib borishi eng muhim vazifalardan biridir. Bu esa pedagoglardan yuksak mahorat, qunt va zamonaviy kasbiy komponentlikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N. A “Bo`lajak kasb ta’limi o`qituvchilarini kasbiy shakllantirish” Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. G’ulomov S.S. va boshqalar “Axborot tizimlari va texnologiyalari”. Oliy o’quv yurti talabalari uchun darslik. - T: «Sharq», 2000 y.